




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:

№ BD-60710400

2022 yil " 27 " 08



"TASDIQLAYMAN"

Sano'U rektori:

R.I.Xalmuradov

2022 yil " 08 " 30

FALSAFA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	700000 – Muxandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	710000- Muxandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	60710400-Ekologiya va atrof-muxit muxofazasi

Fan/modul kodi	Oquvyili	Semestr	ECTS – Kreditlar	
FAL 1303	2023-2024	3	3	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy fan	O'zbek		4 soat	
1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	Falsafa	38	52	90

### II Fanning maqsadi (FM)

2	Fannio'qitishdan maqsad – yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish, ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid eng umumiy qonuniyatlarga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini anglab yetish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'zini ahamiyatini ochib berishdan iborat
---	--

### Fan mazmuni

#### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.1 Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

M1	Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati. Falsafa dunyoni anglash usuli. Falsafaning predmeti, tuzilishi, funksiyalari, yangi soxalari va uzgaruvchan xarakteri. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa. Falsafaning dunyoqarashga doir ijodiy roli. Dunyoqarash shakllari. Fanning dunyoqarashga doir mohiyati, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Falsafa va fanning mutanosibligi, farqi.
M2	Borliq va rivojlanish falsafasi. Falsafa va tabiiy fanlarda borliq tushunchasining mohiyati, borliq va yuqlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Falsafa va fizikada substansiya, substrat va materiyaning uzaro aloqasi. In'ikos nazariyasi va uning shakllari. Xarakat tushunchasining tavsifi, tiplari va shakllari. Falsafada makon va vaqt dialektikasi. Tabiatni ontologik makoni. Biosfera va Noosfera xaqidagi ta'limotlar. Tabiatga oid koevolyusion va in-vayronmental nazariyalar. Falsafada shakllanish, uzgarish, rivojlanish va taraqqiyot tushunchalarining mohiyati. Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalari.
M3	Bilish nazariyasi. Bilishning mazmuni va mohiyati. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Falsafa tarixida bilishga oid qarashlar evolyusiyasi. Bilishda sub'ekt va ob'ektning uzaro aloqasi. Hiissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalarini uzaro aloqasi va farqi. Xaqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari. Xaqiqat, amaliyot va faoliyatning mutanosibligi. Xaqiqatga erishishda tushunish va tushuntirish dialektikasi. Bilish metodologiyasi. Metodlarning tasnifi. Xozirgi zamon metodologiyasi. Tizim, tizimli yondashuv, tizimli taxlil tushunchalarining uzaro aloqasi va farqi. Tizim dinamikasi.
M4	Mantiq. Tafakkur mantiqiy fikrlash asosi. Tushuncha, xukm va xulosaning fikr teranligini ta'minlashdagi roli. Dialektik mantiq. Formal mantiq. Matematik mantiq. Tafakkur va til mutanosibligi. Tanqidiy tafakkurning mantiqiy xulosa chikarishdagi o'zini. Sillogizm nazariyasi. Isbotlash va rad qilishda dalillarning o'zini. Argumentlash (dalillash)ning mantiqiy xulosa chikarishdagi ahamiyati. Modal mantiqqoidalari. Mantiq va ritorika. Mantiqiy

	semantika Fikr va xarakter mantigi.
M5	Jamiyat va inson falsafasi. Jamiyat tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Tarixning mazmuni, yunalishlari va konsepsiyalari. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Madaniyat va sivilizatsiya mutanosibligi. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va hozirgi davrdagi shakllari. Jamiyat rivojida til. Ong, va tafakkur imkoniyatlari. Ongning tabiati, strukturasi va funksiyalari. Onglilik va ongsizlik dialektikasi. Klipli tafakkur va texnologik taraqqiyot. Falsafiy antropologiya va elitologiyaning uyg'unligi. Xayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Evgenika va biotika. Xayotni tark etish bosqichlari. Suitsid, parasuitsid, evtanaziya va uning shakllari, esxatologiyaning mohiyati.
M6	Axloq va qadriyatlar falsafasi (Etika). Etikaning mohiyati va axamiyati. Sharq va G'arb mutafakkirlari axloqiy qarashlari dialektikasi. Axloqning funksiyalari. Axloqiy qadriyatlar ierarxiyasi. Muhabbat, nafrat, baxt, va baxtsizlik. Tushunchalarining axloqiy va qadriyatli jihatlari. Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Jamiyatning devalvatsiyasi (qadrlanish va qadrsizlanish). Sog'likning qadriyat sifatidagi axamiyati. Sog'lom turmush tarzi salomatlik omili.
M7	Estetika nazariyasi. Dunyoni estetik idrok qilishning mohiyati. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyusiyasi. XX-XXI asrda estetikaning asosiy yunalishlari va kategoriyalari. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Reklamanning estetik didni tarbiyalashdagi roli. Xalq amaliy san'atining estetik jihatlari. Olamni virtual va visual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni idrok etishning darajalari. San'atdagi inkiroz (degumanizatsiya). Tushkinlik san'ati va undan chikish maxorati.
M8	Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi. Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining mohiyati. Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yunalishlari. Global jarayonlarning tasnifi. Migratsiya va urbanizatsiya barqarorlik va beqarorlik omili. Global jomoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning global siyosiy xarakteri. Pandemiya – XXI asrning global muammosi. Global makonda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi. Zamonaviy texnikaning insonparvarlashuvi.
M9	Din madaniyat fenomeni. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojuylik tushunchalarining mohiyati. Dinshunoslikning kategoriyalari. Qadimgi va milliydinlarning tasnifi. Qur'on va Xadislarda vijdon erkinligi xaqidagi dastlabki g'oyalar. Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod xaqidagi qonun qabul qilinishining ijtimoiy madaniy axamiyati. Dunyo va O'zbekistonda diniy ma'rifatni takomillashtirishning yunalishlari. Xalqaro diniy tashkilotlar va diniy uyushmalar faoliyatining tasnifi.
M10	Islom qadriyatlari. Islomda inson xuquqlari ximoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g'oyalari. Islomda atrof-muxitni muxofaza qilishning ustivor yo'nalishlari. Islom dinida vatanparvarlik g'oyalarining talqini. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlarida er-xotinning xuquq va majburiyatlar. Islomda otanalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas'uliyat. Islomda axloqiy qadriyatlar. Islomda do'stlik, sog'lom turmush tarzining targ'iboti. Islomda fan va ta'lim, madaniyat va san'atga munosabat. Islom arxitekturasi. Islom dinining jaxon sivilizatsiyasi rivojidagi o'ri.

III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti	
S1	Falsafaning fan va dunyoqarashga doyr moxiyati
S2	Borliq va rivojlanish falsafasi
S3	Bilish nazariyasi
S4	Mantiq, Jamiyat va inson falsafasi
S5	Axloqiy qadriyatlar falsafasi (Etika). Estetika nazariyasi
S6	Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi
S7	Din madaniyat fenomeni
S8	Buddaviylik va xristian dini tarixi va falsafasi
S9	Islom dini tarixi va falsafasi

Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talablar:  
 "Falsafa" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va  
 mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi (52)

№	Mavzu nomi	Axborot manbai
1.	Falsafa fani. Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglash jarayonidagi ta'siri	[A 1.1.] - 6-28 betlar [A 1.2.] - 7-28 betlar
2.	Insoning ma'naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli	[A 1.1.] - 39-40 betlar [A 1.5.] - 24-50 betlar
3.	Falsafiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari	[A 1.6.] - 180-210 [A 1.2.] - 29-63 betlar
4.	Borliq falsafaning fundamental kategoriyasi	[A 1.1.] - 43-55 betlar. [A 1.7.] - 5-17 betlar
5.	Borliq va uning asosiy shakllari	[A 1.7.] - 20-24 betlar [A 1.8.] - 133-154 betlar
6.	Ong - borliqning ma'naviy shakli	[A 1.7.] - 104-122 [A 1.1.] - 53-55 betlar
7.	Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari	[A 1.2.] - 136-146 [A 1.18.] - 304-332 betlar
8.	Bilim inson ma'naviy kamoloti omili.	[Q 2.4.] - 17-25 betlar [Q 2.5.] - 147-155 betlar
9.	Tarix falsafasi va falsafa tarixi ug'unligi.	[A 1.1.] - 261-276 [A 1.2.] - 146-169 betlar
10.	Inson hayotida mantiq ilmining ahamiyati	[A 1.1.] - 165-188 [Q 2.4.] - 322-327 betlar

**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Mazkur fan orqali talaba- falsafa faning predmeti, asosiy tushunchalari, ta'rif, mohiyati va o'qitish maqsadi, vazifalarini hamda jamiyatdagi roli haqida *tasavvurga ega bo'lishi*; falsafa va tabiiy fanlarda borliq tushunchasining moxiyati nazariy

xulosalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*; falsafiy dunyoqarash, mantiqiy tafakkur va intellectual rivojlanish haqida *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*; Jamiyat tushunchasining mohiyati, rivojlanish bosqichlari konsipsiyalari tarix falsafasining mazmuni, yunalishlari hamda madaniyat va sivilizatsiya mutanosibligi haqida tasavvurga *ega bo'lishi kerak*.

**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

ma'ruzalar;

interfaol keys-stadilar;

“Aqliyhujum” metodi;

“T-jadval”, “Venna”tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar

**VII. Kreditni olish uchun talabalar:**


Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va mustaqil ta'lim nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

Asosiy adabiyotlar	
A1.	J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev. Falsafa: Darslik. -Samarqand. 2021. – 712.
A2.	Q.Nazarov [va boshq.]. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qollanma / - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.
A3.	Falsafa asoslari. (mas. muh: Q.Nazarov). - T.: O'zbekiston, 2005. - 384 b.
A4.	Dinshunoslik. O'quv qollanma / - Toshkent: TIKXMMI, 2019. - 338 b.
A5.	Emirova Ye., Strelsova A. Vvedeniye v filosofiyu – T.: Universitet,2008.
A6.	Xaitov Sh. O'zbekiston falsafa tarixi. –T.: Noshir, 2011. – 560 bet.
A7.	Turayev B. Borliq (falsafiytahlil). – Samarqand.: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, 2021. – 130 bet.
A8.	Shermuxamedova N.A. Falsafa O'quv qollanma / - Toshkent. 2010. - 574 b.
Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar	
Q1.	Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2017 yil.
Q2.	Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2018 yil.
Q3.	Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2019 yil.
Q4.	Shermuhamdova. N. Falsafava fan metodologoyasi - T.: Aloqachi, 2008, 400 bet.
Q5.	Ergasheva M. Ta'lim taraqqiyoti: sinergetik tahlil. – Samarqand: SamChTI, 2022. 194 bet.
Q6.	Samadov A, Ergasheva M, Shaxsestetikideali: shakllanish va rivojlanish muammolari – T.: Ziyobuloq, 2021. – 306 bet.
Q7.	Hakimova M, Mamadaminova. Dinshunoslik (o'quv-qo'llanma). T.: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti, 2019. - 338 bet.
Q8.	Pulatova D., Fayzixojaeva D. Mantiq (o'quv-qo'llanma) T.: «PREMIER PRINT . 2013

Falsafa va milliy g'oya  
kafedra mudiri

dots. A.R. Samadov

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar  
fakulteti dekani



dots. A.Q. Aymatov

SamDU o'quv ishlari  
bo'yicha prorektori

prof. A. Soleyev


Mutaxassislik fanlari bo'yicha fan dastur sillabuslarni xorij tajribasini o'rgangan holda transformatsiya qilish bo'yicha ishchi guruh:

Rais:

A'zo:

“Kelishilgan”

SamDU o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:

 Sh.A. Muranov /

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 yil